

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

AUTIZM KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KO'RINISHLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maxsus pedagogika: Logopediya yo'naliши 1-bosqich talabasi

Abduhalimova Mohlaroyim Anvarjon qizi

Annotatsiya: Bolalar psixologiyasi birmuncha murakkab soha hisoblanadi. Bolalar psixologiyasi bolanii aqlini tanishi uni yetuk shxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalar psixologiyasi sohasida ishlovchi har bir hodim sabrli va psixologik jihatdan zukko bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: psixologiya psixika nazariya metod faoliyat metodi

Bolalar psixologiyasi – psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarni, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha „Yosh psixologiyasi“ deb ataydilar.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarni o'rganishda ko'ndalang, kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Birinchi holatda birligina psixik jarayonning o'zi bir vaqtida turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinci holatda (longityud) esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lмаган holatlar o'rgatiladi.

Bola dunyonи, atrofni ota-onasi ko'zlar bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-onasi kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati – bu ko'zgudagi sizning aksingiz.

Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqsa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogika, oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bolalarning yoshiga muvofiq rivojlanishini o'rganish ishlarida psixologlar oldida bolalar psixikasining rivojlanishini tekshirish metodlarini, ularning yoshiga xos xususiyatlarini aniqlash metodlarini ishlab chiqishdek yana muhim bir vazifa turadi. Har bir fanda o'z predmetining mazmuniga qarab, bir qancha metodlar qo'llaniladi. Zarur bo'lgan faktlarni qidirish, ularning sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash ilmiy tekshirish metodlari vositasida bajariladi. Bu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, barcha fanlarning yagona metodi dialektik materialism metodologiyasidir. Barcha fanlarning xususiy metodlari shu metodologiyaga asoslanadi. Bolalar psixik hayotiga oid qonuniyatlarni o'rganuvchi bolalar psixologiyasi ham dialektik materialism metodologiyasiga asoslanadi va boshqa hodisalarga nisbatan o'rganilishi ancha qiyin bo'lgan nozik psixologik hodisalarning asli mohiyatiga ilmiy asosda bilib olishi

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

mumkin bo'lgan bir narsa deb qaraydi.Dialektik materializm prinsiplariga asoslangan bolalar psixologiyasi murakkab aks ettirishdan iborat bo'lgan sub'ektiv hodisalarni ularning ob'ektiv sabablari bilan birlashtirishda,ya'ni tirik materianing eng murakkab turi bo'lgan miyadagi fiziologik proseslar hamda kishining butun psixikasi,ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi,undagi konkret ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birlashtirishda o'rorganadi.Bolalar psixologiyasi murakkab psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rghanishda determinism,ya'ni narsa va hodisalarning sababiy bog'liqligi prinsipiiga asoslanadi.

Ma'lumki,bolalar psixologiyasi va pedagogic psixologiya umumiyligi psixologiyaning asosiy metodlaridan foydalanadi.Umumiyligi psixologiyaning asosiy metodlari kuzatish va eksperiment metodlardir.Bulardan tashqari,bir qancha yordamchi metodlar ham bor(suhbat metodi,faoliyat mahsullarini o'rghanish metodi,anketa Modellashtirish metodi. Model o'rghanilayotgan biron psixik hodisalarning yasama andozasi hisoblanadi.Boshqa metodlardan modellashtirish metodining farqi shundaki,bu metod yordamida ayrim psixik proseslar bevosita emas,balki bavosita ya'ni model yoki vosita bilan o'rghaniladi.Biroq psixik prosesning (ko'rsh,eshitish,taktil sezgilari kabi) modelini yuzaga keltirish uchun shu psixik proses haqida chuqur va to'la bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi.Shuning uchun modelning mukammal va adekvat (ya'ni o'rghanilayotgan 6 ob'ektga nihoyatda o'xshash) bo'lishi ko'p jihatdan o'rghanilayotgan psixik proses haqidagi bilimlar darajasiga bog'liqdir

Bola psixikasining rivojlanishi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan prosesdir, har qanday boshqa rivojlanishdagi kabi, bunda ham miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga, o'tishlarga, "sakrashlar"ga olib keladi. Masalan, bolada so'z boyligining asta-sekin ortib borishi tilning Grammatik qurilishini egallashga, ayrim xatti-harakatlar va yurish-turishlarning ko'p marta takrorlanishi esa shaxsda muayyan ko'nikma, odat, qat'iy xususiyatlar kabilarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Bola psixikasi rivojlanishining eng umumiyligi qonuniyatlariga, birinchidan izchillik integratsiyasini, ya'ni bolaning dastlabki tarqoq psixik holatlarini shaxsning barqaror psixik xislatlari, muayyan hodisalarga nisbatan ayrim-ayrim qarashlarni yaxlit dunyoqarashga birlashtirish; ikkinchidan, bola shaxsidagi ayrim proseslar,funksiyalar va xislatlarning notejis rivojlanishining; uchinchidan, ba'zi funksiyalar kamchiliklarni boshqa funksiyalar bilan tp'ldirilishini(kompensatsiya) ta'minlovchi plastikliknirkiritish mumkin.

Bola psixikasining integratsiyasi,masalan, alohida predmet va hodisalarni to'liq idrok qilish asosida kuzatuvchanlikning,ayrim mehnat topshiriqlarini mehrmuhabbat bilan bajarish asosida mehnatsevarlikning shakllanishiga yaqqol namoyon bo'ladi. Psixika rivojlanishining notejisligi hayotning hamma davrlarida sodir bo'lish mumkin. Masalan,maktabgacha yoshda ayniqsa nutq,o'smirlik yoshida bilishga qiziqish,ilk yigitlik yoshlarda mantiqiy (logik) tafakkur va hokazolar jadallik bilan rivojiana boradi. Qator psixologlar aniqlashiga ko'ra,bola psixikasi rivojlanishida asosiy ichki harakatlantiruvchi kuchlar avvalo quyidagilar hisoblanadi: eski, ya'ni allaqachonlar erishilgan imkoniyatlar bilan yangi ehtiyojlar o'rtaсидаги ziddiyatlar; eski va yangi xulq shakllari o'rtaсидаги ziddiyatlar; real hayotning mazmuni va uning bola ongida aks etish shakllari o'rtaсидаги ziddiyat.

Irsiyatning kobiliyatlarga daxli bor. Xosil bulgan kobiliyatlar emas ,balki bulgusi kobiliyatlarning shart sharoiti yoki ,anatomik fiziologik kurtaklari naslga utadi.Ammo kurtaklarning uzi kobiliyatga aylana olmaydi. Kurtaklarni bulik yaxshi donga uxshatish mumkin .Don yaramas tuprokkaga tushganda kukarmasdan chirib ketishi mumkin.Ijtimoiy – tarixiy sharoit va tarbiya sharoiti nokulay bulsa , kurtaklar kobiliyatga aylanmay kolishi mumkin.

Yuqorida aytilanlaridan kuyidagi xulosalarni chikaramiz:

- 1.Irsiyat takdirni belgilaydigan kuch emas;
2. Irsiyat beetibor koldirilmay xisobga olinishi lozim;
- 3.Irsiyatning u yoki bu kurinishlari ijtimoiy tarixiy xayot sharoitiga, bolalarni ukitish va tarbiyalash sharoitiga boglik.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

Bolalarning usib kamolga etishini xarakatga keltiruvchi ikkinchi kuch (faktor) ijtimoiy muxitdir.(Muxit) tushunchasi ikki ma'noda ishlataladi.Keng ma'nodagi (muxit)suzidan insoniyatning butun xayot sharoiti:tabiiy geografik va ijtimoiy tarixiy sharoiti tushuniladi.Tor ma'nodagi 'muxit' suzidan kupincha oilaviy turmush sharoiti,tevarak–atrofdagi ijtimoiy xayot tushuniladi. Shunday kilib, ijtimoiy muxit bolalar psixikasining tarakiy etishiga ta'sir kursatadi, lekin muxit uzgarmaydigan bir narsa emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.T.Nishonov, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboevva . Bolalar psixologiyasi. Toshkent . 2017
2. Autizm-Vikipediya. <https://sq.m.wikipediya.arg>
3. Bolalarda autizm diagnostikasi va ijtimoiylashuvdagি muammolar. <https://ppmedu.jdpu.uz>
4. Leo Kanner, 1894-1981-the Autizm Historiy Project-110Blogs. <https://edu blogs. Uoregon>.
5. Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash. <https://presedu>.